



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -
MATERIYANI BILISH USULI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-OQTUVIGHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLU TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR
№48

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
8-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-8**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-8**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Zayniyeva Billura Shoxitdinovna	
F.M.DOSTOYEVSKIYNING "TELBA" ASARINI O'QIB.....	7
2. X.K.Utemuratova	
Г.ДӘҮЛЕТОВАНЫҢ ШАЙЫРЛЫҚ ШЕБЕРЛИГИН ИЗЕРТЛЕҮ МӘСЕЛЕСИ.....	9
3. Atadjanova Saodat Atadjanovna	
OGAHIYNING TARIXNAVISLIK MAHORATINING SHAKLLANISHI	11
4. Ro'zimatova Bahor	
ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	12
5. Sholbayeva Dildora	
O'RTA CHIRCHIQ TUMANI SHEVASIDA ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARNING NOMLARINI VA NOMLAR BILAN BOG'LIQ DIALEKTAL SO'ZLAR.....	14



АДАБИЁТ

F.M.DOSTOYEVSKIYNING "TELBA" ASARINI O'QIB...

Zayniyeva Billura Shoxitdinovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani

3-umumi o'rta ta'lif maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Telefon +998916471035

Annotatsiya: Maqolada F.M.Dostoyevskiyning “ Telba” asari haqida ma'lumotlar berilgan. Asar g'oyasi atroficha olib berilgan. Asar qahramonlari ruhiyati, xatti-harakatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: realistik roman, ”Haqoratlanganlar va xo'ranganlar”, fojiaviy konflikt, ilohiy muhabbat.

Badiiy asar o'qish inson tafakkurining rivojiga beqiyos hissa qo'shamdi. Jahon adabiyoti mutolaasi esa uyda o'tirib butun dunyoni kezish, olamdag'i barcha xalqlar ma'naviyati bulog'idan bahramand bo'lish imkonini beradi. Ulug' rus yozuvchisi Dostoyevskiy ijodi ham ma'naviyat xazinasi tunganmas buлоqdir.

Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy 1821 yilda Moskva shahrida vrach oilasida tug'ildi. Fyodor akasi Mixail bilan ruhan yaqin edilar. Otasi, onasi uni unchalik tushunmas edilar. Fyodor akasi Mixail bilan Moskvaning eng yaxshi pansionlaridan birida o'qishadi. 1832-43 yillarda Peterburgdagi Oliy Injenerlar bilim yurtida o'qiydi. 1847 yilda hibsga olinadi, Petropavlovsk qal'asiga qamaladi.

1849 yil 22 dekabrda podsho uni qatl etishga hukm etadi. Lekin hukm 4 yillik katorga bilan almashtiriladi va Sibirga Omsk turmasiga jo'nataladi. 1850-54 yillarda katorgada, 1854-57 yillarda Semipalatinskda 7- Sibir batalonida oddiy soldat bo'lib xizmat qiladi. 1857 yilda uning barcha fuqarolik va dvoryanlik huquqlarini qaytarib berishadi. 1859 yilda M.D.Isayevaga uylanadi, lekin baxtli bo'lolmaydi. 1861- yilda “Haqoratlanganlar va xo'ranganlar” romanı dunyoga keldi. 1862-yilda Dostoyevskiy chet el safariga chiqadi: Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiyaga boradi.

1866-1888 yillar davomida birin- ketin “Jinoyat va jazo”, “O'smir”, “Telba”, “Aka-uka Karamazovlar” va boshqa katta-katta romanları dunyo yuzini ko'rdi. Dostoyevskiy 1872 yildan 1881 yilgacha “Grajdanim” jurnaliga redaktorlik qiladi. 1881 yilda vafot etadi, uni Peterburg shahridagi Aleksandr Nevskiy lavrasining Tixvin qabristoniga qo'yishadi.

Dostoyevskiy asarlaridagi qahramonlar boshqalarga o'xshamaydi. Uning qahramonlari kambag'allik, jabr-sitam, isyon haqida kam gapirishadi. Ularni boshqa muammolar qiyndi. Dostoyevskiy inson qalbidagi eng nozik, eng chuqur, har qanday odamni ham hayajonlantiradigan fikrlarni tuyg'ularni quyuq ranglar bilan tasvirlaydiki, asarlari bilan birinchi bor tanishgan kitobxon ularni osonlikcha hazm qilolmaydi. Dostoyevskiyning yana bir asosiy tomonlaridan biri zamonaviy o'zgarishlarning shaxsning o'zligini tanishida, ma'naviy qashshoqlanishida va shu shaxsning oilaga, jamiyatga, siyosatga, iqtisodiyotga ta'sirini yanada bo'rttirib ko'rsatishga intilishdir.

Dostoyevskiy ijodi garchi ziddiyatli bo'lsa-da rus va jahon adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Dostoyevskiy 19- asrdagi realistik roman janrini yangi o'ziga xos tomonlar bilan boyitdi. Adib to'laqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimini, insonlar taqdirini, qalb kurashini, balki jamiyat ma'naviy hayotidagi fojiaviy konfliktlarni ham bera oladi.

Dostoyevskiyning “Telba” romanı boshqa romanlaridan shunisi bilan farqlanadiki, uning qahramoni Mishkin boshqalar kabi sog'lom emas. Asarning “Telba” deb nomlanishining sababi ham shunda. Roman markazida qahramonning ishi emas balki, qahramonni ham o'z domiga tortayotgan hayot va uning ikir- chikirlaridir. Mishkin har doim o'zini xokisor va kamtar tutadi, kasalligini yashirmaydi, lekin u atrofdagilardan o'zining bilimi va ichki dunyosi bilan shuningdek favqulodda aqlliligi bilan yuqori turadi. Mishkin -ilohiy muhabbatning timsolidir. Bunday muhabbatni oddiy odamlar tushunmaydilar, chunki u judayam buyuk va yuksakdir. Muallif qahramonni zamonaviy



muhokamalarga olib kiradi, lekin knyaz Mishkin o’z g’oyasiga teskari g’oyalarga butunlay befarq bo’lib chiqadi. Mishkin Rossiyadagi hayotga, umuman tushunolmaydi. Yaxshilik qilmoqchi bo’ladi, natijasi yomonlikka aylanadi. Romanning asosiy mazmuni shundan iboratki, reforma paytida jamiyatdagi ziddiyatlarning kuchayishi, odamlar o’rtasida mehr-muhabbatning orzuga aylanishidir.

Asarda Nastasya Filipovna—tahqir etilgan nomus, knyaz Mishkin -- beg’uborlikning bahosiz badali, Parfyon Rogojin- yonayotgan g’urur, Aglaya - qismati qaro qadrsiz muhabbat, donkixot Ivolgin- kulguning ayanchli tusi, dali-quv Lebedev - o’ziga mubtalo yolg’on, xastajon Ippolit - alamning hasad tomon o’rmalayotgan qop-qora tutuni bo’lib bo’y ko’rsatadi. Asar boshidanoq knyaz Mishkinni tog’riso’zligiga, pok va samimiy ekaniga guvoh bo’lamiz. Bunday insonlar hayotda juda-juda kam, hatto yo’q ham. Boriyam ruhiy jihatdan xasta. Knyaz Mishkin Shvetsariyadan Rossiyaga kelishi voqeasiga nazar tashlaymiz. Mishkin hali tanimagan yo’lovchi hamrohlariga o’zining to’g’riso’z, sodda, samimiyligi sabab kulgu bo’ladi, lekin u bundan sira jahli chiqmaydi. Asar davomida Totskiy obrazi boshqa obrazlardan farqlanadi. U boy-badavlat, yoshi ellik beshlarga borib qolgan, fe’l –atvori nafis, favqulodda inja tabiatli, nozik didli odam deya ta’riflanadi. U Nastasyaning gulday umrini xazon qilgan, hayotini shamolga sovurgan axloqsiz inson, lekin o’z axloqsizligini tan olmaydi. U Nastasyaga qilgan yovuzliklarini mudhish hodisa deb bilmaydi, aksincha men uni tarbiyaladim, unga yaxshilik va muruvvat qildim deydi. Knyaz Mishkin atrofidagi insonlarni boricha qabul qiladi: Olomon hukmiga tashlangan baxtsiz mazlumani achina-achina sevadi, Ivolgin kabi mazax qilingan qariyani ham tushunadi va hamard bo’ladi. Dunyonni go’zallik qutqaradi deyishadi. Knyaz Mishkin qalbida esa hali zamon poymol qilib ulgurmagan sof go’zallik bor edi. Asarni bezab turgan obraz shubhasiz knyaz Mishkindir.

Bu qahramonlar kim? Ular xilma-xil taqdir va xarakter egalari. Asarda halollik va aldov, aql va shumlik, yovuzlik va mardlik kabi xislat egalari bo’y ko’rasatadi. Ularning buguni, o’tmishi qanday bo’lishidan qat’iy nazar, ular ichtirob chekkanda qo’shilib ichtirob chekamiz, ularga hukm o’qishdan tiyilamiz. Knyaz Mishkin bu, shubhasiz, Dostoyevskiyning o’zi. Asar o’zbek kitobxoni joyonida bor bo’lishi kerak bo’lgan kitoblarning avvalidir. ”Telba” bizni mushohadaga chorlaydi, ruhiyatimizga safar qilishga, jismoniy nosog’lom insonlar ham hamma qatori sevishga, sevilishga baxtgaga loyiq ekanliklarini anglatadi. Zero, Abdulla Qahhor aytganidek, odamning chiqiti bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Dostoyevskiy “Telba” romani.



Г.ДӘҮЛЕТОВАНЫң ШАЙЫРЛЫҚ ШЕБЕРЛИГИН ИЗЕРТЛЕЎ МӘСЕЛЕСИ

Х.К.Утемуратова,

доцент, филология илимлери кандидаты,
улken илимий хызметкер, Өзбекстан Республикасы

Илимлер академиясы Каракалпақстан бөлими
Карақалпақ гуманитар илимлер илим-изертлеў институты

Аннотация. Мақола қорақалпоқ адабиётшунослигидаги долзарб муаммоларининг бирига бағишланган. Муаллиф Х.Даuletназаров ижодиётининг ўзига хос хусусиятларини белгилаган. Шунингдек, ижодий лаборатория ўрганилиши масалалари ҳақида ҳам сўз юритилади. Шоирнинг якка ижодини аниқлаш катта аҳамиятга эга. Мақола адабиётшунослик фанидаги долзарб масалани илгари сурган.

Калит сўзлар. Ижодий лаборатория, услуб, поэтика, образ, достон.

Шайыр Г.Дәүлетова «Сениң дәртиң менен жасайман, ҳаял», «Қызы таҳтым», «Тумар қызы», «Ҳәзирети ҳаял», «Гузги толғаныслар», «Гүлистан», «Қәлбимдеги естелик» поэзиялық топламларын дөретти. Өзбек тилинде «Аёл ишқи» атлы топлами жарыққа шықты. «Эжинияз поэзиясында дәстүр ҳэм жаңашыллық» атамасындағы монографиясын «Карақалпақстан» баспасынан 1997-жылы шығарды. «Толғаныслар» атлы илимий-теориялық мақалалар топламында оның бир неше илимий мийнетлери жәрияланды. Эжинияз поэзиясы бойынша ойларын илимий мийнетлеринде баянлайды. И.Юсупов шығармалары бойынша изертлеўлеринен ибарат мақалалары бул топламнан орын алған. «Руўхыйлық-әдебият өлшеми», «Инсан тәрбиясы балалықтан басланады» атлы илимий мийнетлерин баспадан шығарды. Заманлас шайырлар дөретпелери бойынша илимий мақалалары баспа сөз бетлеринде жәрияланды, кейиниен топламларда басылды. Көрнекли шайырлар С.Нийетуллаев, Г.Шамуратова, М.Жуманазарова поэзиялары бойынша пикирлери жәрияланды. Хошхауз қосықшы Гүлпаршын Сырымбетованың қайтыс болған күнине арнап, «Гүлпаршын гүл жүзлим қайтты дүньядан» атлы жоқлау мазмұнында поэзиялық тууындысын жаратады.

Шайырлар Ә.Әжиниязов пенен Ш.Аяповлар Гүлистанның мектеп дәүириндеги устазлары болды, дәслепки қосықларын газеталарда жәриялауда үлес қосты. Ә.Әжиниязов өзи тәбийфый туўма талантлы шайыр болыў менен бирликте, көплеген талантлы шайырлар таярлаған, жетик устаз шайыр саналады. Оның көп санлы шәқильтериниң бири болған Гүлистан қосық жазыў сырларын, қалай етип оқыушыларға шайыр өз сезимлерин жеткериپ бериў кереклиги тууралы устаз пикирлерин тыңлады, дәслепки дөретпелерин устазы жалақпай оқыды, биринши тыңлаушысы болды, айырым нұқсанларын дүзетти. Бул ҳаққында Гүлистан Дәүлетова Ә.Әжиниязов тууралы еске түсириў сыйпатындағы мақаласында айттып өтеди.

Г.Дәүлетова «Тумар қызы» тарийхый дәстанын, «Алп ана» тарийхый-драмалық дәстанын, «Қәлбимдеги естелик» атлы ҳәм «Ыразы болың, анажан», «Шежирели Шахаман» поэмаларын дөретти. Шахаман сөзинин келип шығыў тарийхы жөнинде халықта сақланып киятырған аңызлардан, рәүиятлардан бул поэмасында келтиреди. Шахаман ҳаққында пухаралар көз қарасынан баҳа береди. Бердақ шайыр «Шежире» атлы дөретпесин жазды. Усы дәстүрди даўам ете отырып, Шахаман елаты ҳаққында пикирлерин қосық қатарларында баянлайды. Түүлған мәканның келбети, пейзажлары шеберлик пенен сүүретленеди. «Алп ана» атлы шығармасының дөретилийинде Қумар ананың әүләдларының, Бийбизада кемпирдин ядқа алыўлары пайдаланылады. Ерназар алакөздин басын Хийўа ханынан сорап алып қайтқан мәрт ана образы жасалады. Т.Қайыпбергеновтың «Карақалпақ дәстаны» трилогиясында Ерназар тууралы сөз етиледи. «Бахытсызлар» романында эпизодлық персонаж сыйпатында қатнасады. «Түсиниксизлер» романында бас қаҳарман етип таңланады. Рабибиди образы да Г.Дәүлетова тәрепинен өзгеше жаратылады. Мәмбетмурат образы да жасалады. Т.Қайыпбергенов романларында жоқ қаҳарманлар да Г.Дәүлетова поэмасында қатнасады. Бердақ шайыр образын ол Т.Қайыпбергенов пенен А.Садықовтан басқаша дөретеди, уллы шайырдын, өзинин қосықларынан мысаллар келтиреди. Бердақ шайырдың қосықларынан мысаллар келтирилийи бул дөретпениң өзгешелиги есапланады. Дөретиўшилик лаборатория



туўралы сораўларымызға ол асықпай жуўап береди. «Қосық илаҳийдан туўылады» дейди ол қосықларының, поэмаларының дөретилий тарийхын сорағанымызда. Ҳәр бир сөз орнына қойылмаса, мазмунды жеткериp бериў қыйыкшылық туўдырады. Шайыр ҳәр бир сөзине итибар береди. Оның шығармалары тилинде миллий тилимиз байлығы шеберлик пенен пайдаланылады. Қосықларының ҳәр бир қатарында жуўмақланған ой орын алады. Тумарис. Гұлайым, Күмар образларын жаратыў ушын ҳаял-қызлар поэзиясының ўәкили саналған Г.Дәўлетова басқа шайырларда ушыраспайтуғын, өзгеше усылларды қолланады. Олардың ҳәр бирине тийисли сыпатты белгилер келтириледи. Сөз шебери болған шайыр поэзиялық туўындыларында ҳәр бир сөзге айрықша мәнис жүкленді. Шайыр ҳәр бир қосығын ойланып, толғанып жазады. Ол жаслық, жаслар, қызы-жигитлер, аналар образларын көркем дөретеди. «Баўырманым, анажан», «Анажан», «Үйинизде анаң болмаса» тәризли қатар қосықларында ана образы жасалды. Қызы апаның шаңаракта орны, қәдир-қымбаты жөнинде «Эжапа» шығармасында сөз етиледи. «Шәръяр» дәстанындағы Энжим образы тәризли қарақалпақ қызларындағы баўырманлықты, мийрим-шәпәәтти сәүлелендіреди. Қарақалпақ фольклорында да қызлар образы өзгеше жаратылды. Қызлардың гөzzаллығын жырлап «Қызлар үйге кир» атлы қосық дөретилди. «Ашық Нәжеп» дәстанында Минайым сулыудың образы бериледи. «Оян енди қыз Минайым» атлы қосық халқымызда тараган. Демек, шайыр шеберлиги белгили болады.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Архангельская Т.Н. В творческой лаборатории Льва Толстого. Источники, прообраз и образ. - Орел. 2004. 267 с.
2. Ахметов С. Қарақалпақ поэзиясы. - Нөкис. Қарақалпакстан, 1988, 404 бет.
3. Мәмбетов К. Әдебият теориясы, - Нөкис: Билим, 1995, 191-бет
4. Дәўлетова Г. Гүлистан. - Нөкис, 2022.
5. Дәўлетова Г. Ҳәзириети ҳаял. - Нөкис, 2020.
6. Дәўлетова Г. Гүзги толғаныслар. - Нөкис, Қарақалпакстан, 1998.
7. Дәўлетова Г. Тумар қызы. - Нөкис, 2012.
8. Толғаныслар. - Нөкис, Қарақалпақстан, 1997.
9. Оразымбетов Қ. Ҳәзириги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың типологиясы ҳәм эволюциясы. - Нөкис, Билим, 2004.



OGAHIYNING TARIXNAVISLIK MAHORATINING SHAKLLANISHI

Atadjanova Saodat Atadjanovna
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir tarixchi tarjimon va davlat arbobi bo`lgan Muhammad Rizo Ogahiyning tarixnavislik mahoratini shakllanishi ochib beriladi. SHermuhammad Munis yoza boshlagan “Firdavs ul-iqbol” asarini yakunlash jarayoni, Mirxon qalamiga mansub “Ravzatu-s-safo”asari tarjimasini davom ettirish Ogahiy uchun ijodiy tajriba vazifasini o’taganligi ilmiy dalillangan.

Kalit so`zlar: Ogahiy, tarixnavis, badiiy-tarixiy nasr, saj`, nazm, ijodiy, tajriba

Xalqimiz, millatimiz, dunyo hayotida yetuk bir siymo yashab ijod qilishi faqatgina uning tarixda iz qoldirishidangina iborat emas, bunday shaxslar insoniyat rivojini bir necha pog`ona yuksaltirib, xalq ongini ilm nurlari bilan yoritib o`tadi. Shuningdek, haqiqiy ijodkor xalq ishonchini oqlash bilan bir qatorda, avlodlarga o`lmas meros ham qoldiradi. Shunday ijodkorlar sirasiga Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiyni ham kiritishimiz mumkin. Ogahiy o`z merosi bilan nafaqat o`zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo va jahon ilmiy merosida katta o`rin tutgan shoir, tarjimon va tarixnavisdir.

Ogahiy katta olim-u fuzalolarni yetishtirib bergen, yuksak madaniyat o`chog`I bo`lgan Xorazmda XIX asrda-1809-yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog`ida mirob oilasida dunyoga keladi. Xiva madrasalarida arab, fors, turk tillarini, mumtoz adabiyotni puxta egallagan. Muhammad Rizo juda yoshligidan amakisi mashhur tarixchi alloma va mamlakat bosh mirobi Munisning qo`lida tarbiya topgan. Munis xonardonida o`z davrining yetuk allomalarini, shoirlar teztez to`planib, suhbatlar qilishar, aynan shu muhitda Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiy Xorazmnинг mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtiroy etgan, sharq klassik asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o`rgangan.

Ogahiyning ijodiy shaklanishida amakisi Munis Xorazmiyning ro`li katta edi. Munis tarixnavis olim, mohir tarjimon, shoir, xattot va ma`rifatparvar shaxs edi. U arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti bilimdoni, musiqa hamda tarixdan yaxshi xabardor mohir xattot bo`lib, kufiy, rayhoni, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Munis Xiva xoni Eltuzarxon topshirig`I bilan Xorazm tarixiga oid “Firdavs ul-iqbol” nomli qimmatli tarixiy asar yaratishga kirishgan, ammo asarni yakunlay olmay vafot etgan. Asarda garchi tarixiy voqealar tasvirlangan bo`lsa ham, saj asosida yozilgan, turli janrlarga doir nazm namunalari berilganligi jihatidan yuksak badiiy ahamiyatga molikdir. Ogahiy ayni shu uslubda ijod qilish tajribasini dastlab amakisi va ustozи SHermuhammad Munis yoza boshlagan “Firdavs ul-iqbol”ni davom ettirib badiiy- tarixiy nasrning mukammal namunasi sifatida yakunlash jarayonida o`rgangan deyish mumkin. Demak, “Firdavs ul-iqbol” Ogahiy tarixnavislik faoliyatidagi dastlabki qadam, adib uchun katta tajriba maktabi bo`lgan.

Shermuhammad Munis vafotidan keyin Ogahiyga amakisiga yuklatilgan “Ravzatu-s-safо” tarjimasini davom ettirish vazifasi yuklatiladi. Bu asarni tarjimasini amalga oshirish jarayonida Ogahiy Mirxonд ijodiy tajribasidan ham bahramand bo`ladi va bu Ogahiy uchun tarixiy asar yozis-ga ikkinchi muhim saboq bo`ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik: (XVI-XIX va XX asr boshlari). – T. G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2002.
2. Munis va Ogahiy. Firdavs ul- iqbol. –T. 2010. 467-b.
3. Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix (Nashrga tayyorlovchi, so`zboshi, izoh va ko`rsatkichlar muallifi Jabborov). T.”O`zbekiston”, 2009.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Ro'zimatova Bahor,
 Qashqadaryo viloyati Nishon tumani
 20-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo'shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalariha hamohang bo'lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergen erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rinnlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergen voqealar favqulorra bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziysi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko'raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo'ja domla, shahar maorif bo'limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o'ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo'ja domla xarakteri jonli va to'laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo'lgan dramaturgiya sohasida ham iste'dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko'targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo'lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta'sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obraqi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo'ziyev kabi sofdis, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o'jar kishi obraqi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o'xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og'riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo'liga to'siq bo'layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog'liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari noplak illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ'ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo'lishini ko'rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko'rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni



astoydil qo‘msagan,adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yantuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-sон.



O'RTA CHIRCHIQ TUMANI SHEVASIDA ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARNING NOMLARINI VA NOMLAR BILAN BOG'LIQ DIALEKTAL SO'ZLAR

Sholbayeva Dildora
**TOSHDO'TAU "Ona tili
 va adabiyoti ta'limi"**
kafedrasi o'qituvchisi
+998991009525
dildorasholboyeva@gmail.com

Annotation: Ushbu maqolada ilmiy manbalar asosida O'rta Chirchiq tumani shevasining o'ziga xosligi matn asosida ko'rsatilgan. O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini tasniflash, Etnografik dialektal so'zlar o'zbek adabiy tilida va shevalarimizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan juda qadimgi turmush tarsi, urf-odatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan aloqador ko'pgina dialektal so'z mavjud.

Kalit so'zlar: Dialektologiya, ilmiy manba, dialektal matn, O'rta Chirchiq tumani shevasiga xos xususiyatlar.

O'zbek Shevalar lug'atiga urug'chilik, urf-odat, xalq og'zaki ijodi, madaniyatiga oid so'zlarning faqat shevalarda qo'llanishi etnografik dialektal so'zlar deyiladi. Etnografik dialektal so'zlar o'zbek adabiy tilida va shevalarimizda xalqimizning asrlar davomida shakllangan juda qadimgi turmush tarsi, urf-odatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan aloqador ko'pgina dialektal so'z mavjud. Lekin bu xil so'zlar-adabiy tilidagi etnografizmlar ham, adabiy til va shevalar uchun mushtarak bo'lgan adabiy dialektal etnografizmlar ham, faqat sheva dialektalga xos etnografik so'zlar ham bir-biridan farqlangan holda tadqiq etilmagan. Hattoki, rus dialektalogiyasida ham shevalardagi etnografik so'zlar dialektal lug'atga kiritilishi yoki kirmasligi hal etilmagan.

Etnografiya so'zi yunoncha so'z olingen bo'lib etno-xalq, grafiya-shunoslik. Ularning kelib chiqishi turmush tarsi, urf-odatlari moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasidan qatiy nazar teng holda o'zaro tafobutda yoki umumiyligi va o'xshashligini ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi mahsus fan sohasi. Etnografik hozirgi etnoslarning kelib chiqish ularning shaklanishi, joylashishi va etnik tuzilishi urf-odatlari ma'naviy-madaniyati va milliy xususiyatlarini tarixiy jarayon bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tarixiy etnografika yo'qolib ketgan xalq va elatlar tarixiy jarayonlar, maishiy turmush ma'naviy-madaniy xususiyatlarni tadqiq qiladi. Etnogragik bilimlar qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lsa-da, lekin mustaqil fan sifatida XIX-asrning o'rtalarida shakllanib kelmoqda. Dastlab bu atamani XVI-asrning oxirlarida nemis yozuvchisi I.Zummer ishlatgan, keyin esa XVIII-asrning oxirida va 1808-yilda maxsus jurnal shu nom bilan chiqa boshlagan. Etnografiya so'zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Amper taklifi bilan Parij antropologlari kongressida alohida fan sifatida qabul qilingan. O'rta Osiyo xalqlariga tegishli ma'lumotlarni qadimiylar ahamoniylar davriga oid qoyatosh bitiklarida, parfiyoniy, sug'diy, xorazmiy, baxtariy yozma yodgorliklarida, xitoy sayohatnomalarida, sosoniylar Eronining o'rta forsiy, pahlaviy tildagi yodgorliklarida, arman tilidagi manbalarda, qadimiylar turkiy yozma yodgorliklarda uchratamiz. O'rta Chirchiq shevasi vakillari nutqida ham etnografiyaga oid leksik birliklar ham uchraydi. Bu birliklar shu hududdagi sheva vakillarining turmush-tarzi, urf-odatlari, yashash sharoiti, ma'naviyati va madaniyati haqida tegishlicha tushunchalar beradi. Inson o'zligini anglashi uchun u avvalo o'zining kimligini, kimning avlodni ekanligini, o'z qadriyatlarini, urf-odatlari bilishi lozim.

Bu yerda xalq urf - odatlari, ya'ni etnografik leksika haqida to'xtalib o'tamiz. Har bir sheva vakillarining yashash joyiga qarab ularning urf - odatlari shakllangan. Bugungi kunga kelib, bu uruf-odatlar har bir sheva vakillarining ya'ni bugungi avlodning nazaridan chetda qolib ketmoqda. Har bir urf - odatning kelib chiqishi bor. Ular shunchaki paydo bo'lgani yo'q. Bu urf-odatlar bizning ota - bobolarimiz kim bo'lganligini bildiradi. O'zbekistonda 12 ta viloyat bo'lsa, har bir viloyatda tumanlar bo'lsa, har bir viloyatning o'ziga xos urf - odatlari bor. Shuni ham e'tiborga olish lozimki har bir viloyatning tumanida ham urf - odatlari bo'lib, ular haligacha saqlanib qolgan. Bunga misollar keltirsak. Qarshida kuyov kelinni olov atrafida ko'tarib uch marta aylantiradi. Bizning o'rganayotgan obyektimizda ham bu urf - odat bor lekin, ular o'rtasida farq bor. Ya'ni QArshida kuyov kelinni ko'tarib olov atrofida aylantirsa bizning sheva vakillarida kelin bilan



kuyov birgalikda uch marta aylanadi. Bu urf – odat faqat ikki viloyatda emas boshqa sheva vakillarida ham uchraydi. Faqat bir-biridan farqli o‘laroq ajralib turadi.

Betochar // betäčär- nikoh to‘yining ertasi kuni kelin yangi tushgan xonadonga yuziga oq ro‘mol yopilgan holda kiriladi. Bu ro‘mol uchi paxta bilan o‘ralgan uzun cho‘p tutgan kichik yoshdagi o‘g‘il bola tomonidan olinadi va kelin yuzi ochildi deb hisoblaydi. Kelinni o‘choq boshiga olib borib, supra yoyib un elatadi va o‘choqqa o‘t yoqtiradi.

Tom to‘y // tām töj-yangi solingen uyga qarindosh-urug‘larni chaqirishadi. Mehmonlar to‘yana qilib uyga kerakli buyumlar olib kelishadi: Qurdoshimiz yangi uy olgandi, shunga tom to ‘y qildi. Uyi maktap oldida ekan. Qurdäsimiz jängi uj älgändi, šungä tām töj qildi. Uji mäktäp äldidä ekän.

Oltin to‘y // ältin töj- Oltmis yoshga kirgan bobo va momolarning muborak yoshlariga qilinadigan to‘y

Kumush to‘y // kumuš töj -Elik yoshga kirganda onalar qilinadigan to‘y.

Challari // čälläri- To‘ydan keyin kelinning ota uyiga kuyovning qarindosh urug‘lari bilan keladi. Challari katta to‘y kabi o‘tkaziladi. Kuyovni kelinning qarindosh urug‘lari bilan tanishtiradi.

Qiz bazim //qız bazım – qizning to‘yidan bir kun oldin ota uyida o‘zining sinfdoshlari, qarindosh-urug‘lari va kuyovning qarindoshlariga qiladigan kichik bazimi.

Po‘xcha ko‘rsin // poxča körsin-To‘yga yaqin kuyov uyida bo‘ladigan marosim. Kuyov onasi yaqin qarindosh-urug‘lari va qo‘shnilarini mehmonga chaqirib, keliniga qilgan sarpo-surug‘ini ko‘satadi. Po‘xcha ko‘rsinga aytilgan kishlar bitta belboqqa boy chopon, bir kiyimlik va ro‘mol tugib chiqishadi.

Chaqiriq // čaqiriq- kelinni qarindosh urug‘lari va kuyovning qarindoshlari to‘ydan keyin mehmonga chaqirishi.

Ata chaqiriq // ata čaqiriq- kelinning otasi, amakilari, tog‘alari kuyovning uyiga mehmonga borishadi. Ularni alohida kutib olishadi. Ota chaqirida faqat erkaklar borishadi.

Oqliq berdi // äqliq berdi- qiz taraf nozilik bergenini bildirish uchun sovchilarga bir kiyimlik mato berishadi. Shunda kelin tarafning roziligini olgan bo‘ladi.

Og‘iz soldi // äyiz săldi- qizning uyiga bormasdan qarindosh urug‘lardan so‘ratishi. Agar qiz tarafga yigit taraf maqul tushsa sovchlikka kelishaversin deyishadi yoki rat javobini beradi.

Chupron to‘y // čuprân töj-Sunat to‘y –yigitlarga to‘y berish. To‘y berayotganning ota –onasi toy olib kelishadi va boshdan oyoq sarpo qiladi.

Fotixa to‘y // fätixa töj- To‘y kuni kuyov tarafdan keladigan sarpo-suriqlar.

Ko‘rpa-xashar // körpa xaşar-kelinning ko‘rpalarini tayyorlash uchun qilinadigan xashar. Qarindosh - urug‘lar, qo‘ni –qo‘shnilar chiqib birgalikda tayyorlaydi.

Qovurdoq // qavurdāq- Chaqoloqqa kelin onasi tomonidan olib boriladigan marosim.

Uy bezatar // Uj bezätär- qizning bo‘lajak kelinlik uyini bezatish. Hämmä keldi ämmä häli bölam kelmadı.

Uy qoqdi- uyni tozalash ya’ni to‘shanchilarni uydagi hamma buyumlarni opchiqib bir chekadan tozalash

Ata yupatar // ata jüpatär- O‘rta Chirchiq tumani hududida to‘y kuni kelini ota uyidan kuyovnikiga olib ketgach, ota qizning nikoh to‘yida qatnashmaydi. Qiziga oq fotha berib jo‘natgach, otaga yaqin bo‘lgan kishilar qolib, otani yupatadi. Ya’ni yuragining bir parchasi bo‘lgan qizini o‘zga xonadonga berib yuborib, ko‘ngli buzilgan otaning qalbiga taskin berishadi. Bu odat ota yupatar deb nomlanadi.

Demak, bu shevada etnografik xususiyatlarni ifodalovchi dialektal so‘zlar faol qo‘llanadi. Bugungi kunda ham bu urf-odatlar hech qanday o‘zgarishsiz saqlanib kelinmoqda. Sheva vakillarining bir –biridan farqlari ham shundadir. Har bir sheva vakillarining o‘zlarining yashash joyiga qarab urf-odatlar mavjud. Ularning kelgusi yillarda yo ‘qolib ketmasligi uchun urf-odatlarni keljak-yoshlarga yetkazish zarurdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Murodova N. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2019.
3. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.
4. Enazarov T. Karimjonova V. Ernazarova M. Mahmadiyev Sh. Rixsiyeva K. dialektologiyasi. Toshkent: Universitet, 2012.
5. Enazarov T., Abdullayev X. Dialektologik amaliyat -Toshkent, 2018.



6. Эназаров Толиб. Ўзбек шевашунослигининг долзарб долзарб масалалари Тил ва адабиёт таълими. 2017. 6-сони. 17-18-б.

7. Эназаров Толиб. Проблемы в узбекской диалектологии // Актуальные проблемы современной татарской филологии. Материалы IV Всероссийской заочной научнопрактической конференции с международным участием, посвященной 60-летию филологического факультета и кафедры татарской филологии и культуры Башкирского государственного университета. -Уфа, БашГУ, 2017. 461-667-(602-)бетлар.

8. Ashirboyev Samixon f.f.d. “O’zbek dialektologiyasi” Toshkent 2016-yil

9. Содиков Тохир. Лексика говоров Ташкентской области. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологический наук. Ташкент, 1968. Стр.280.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-КИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000